

JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHDA KICHIK GURUHLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Farg'ona shahar 2-sonli politexnikum
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Umarov Umidjon Usvaliyevich.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya fanini o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanib, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, jismoniy tarbiya fanini o'qitishda kichik guruhlar bilan ishlashning yutuqlari, kichik guruhlarni baholash mezonlarini to'g'ri tashkillash.

Kalit so'zlar: kichik guruhlar, noan'anaviy usullar, pedagogik texnologiyalar, hamkorlik, samaradorlik, motivasiya, raqobat, jamoa, baholash mezonlari.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari bo'lajak yosh avlodni turli nazariy bilimlarni, jismoniy tarbiya tizimining rivojlanish tarixiy qonuniyatlari, metodlari, vositalarini o'rgatish hamda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari haqida atroflicha va chuqur bilimlar berish bilan birga ularni kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi davrda ta'lim sohasining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri, o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va noan'anaviy usullarning yutuqlaridan unumli foydalanish, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini milliy mentalitetimiz an'analari bilan mujassamlashtirgan holda mamlakatimiz ta'lim tizimida unumli foydalanish.

Ko'pchilikka ma'lumki dars mashg'ulotlarini quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkin:

a) yakka tartibda ishlash

- b) juftlikda (hamkorlikda) ishlash
- c) kichik guruhlarda ishlash
- d) guruhiy ta'lim shakli
- e) jamoaviy ta'lim shakli
- f) ommaviy ta'lim shakli.

Dars jarayonida guruhni tez-tez kichik guruhlarga bo'lib ishlash maqsadga muvofiqdir. Bundan maqsad guruhning har bir ishtirokchisini faol ishtirok etishga undashdir. Biror bir mavzu katta guruhlarda muhokama etilsa, butun guruhning ishtirokini ta'minlab bo'lmazligi aniq. Bu esa guruhdagi sust ishtirokchilarni umuman chetda qolishiga sabab bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlanganda esa ularning faol ishtiroki talab etiladi va bu har bir ishtirokchining qiziquvchanligini oshiradi. Bundan tashqari kichik guruhlarda ishlash ishtirokchilar uchun tinch va ishonchli muxitni yaratadi, ularning bir-birlari bilan tezroq tanishishi va bir-biri bilan kirishishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, oilaviy mavzularga doyr nozik savollar muhokama etilganda ba'zi ishtirokchilarda noqulaylik, uyalish holatlari vujudga keladi. Kichik guruhlarda ishlash esa ulardagi uyalish, noqulaylikni yo'qotishi mumkin. Guruh soni qancha kichik bo'lsa, undagi ishtirokchilarda qo'rquv, noqulaylik, uyalish hislari kamroq namoyon bo'ladi.

Bolalarga jismoniy ta'lim va tarbiya berish jarayonida quyidagi didaktik ta'limiy tamoyillar qo'llaniladi:

- tizimlilik va izchillik, - onglilik, mustaqillik va ijodiy faollik,
- ta'limning ko'rgazmali og'zaki va amaliy usullarini birga qo'shib olib borish;
- tushunarlilik va individuallashtirish tamoyili;
- ta'limning frontal, guruh va yakka tarzdagi shakllarini birligi;
- talablarni tobora oshirib borish tamoyili.

Jismoniy tarbiya fanini samarali o'qitish ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashni belgilaydi. Jismoniy tarbiya fanini o'qitish o'zining ko'pgina belgilari, ya'ni mazmuni, maqsad va vazifalari, uslublari, vositalari, tashkil

etilishi, o'tkazilish joyi, jixozlanishi, tuzilishi, ajratiladigan vaqti bilan ham boshqa fanlardan keskin farq qiladi.

Mikroguruhlar bilan ishlashda vazifa bajaruvchi, kuzatuvchiyoki ekspert rollarini jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zi taqsimlab berishi kerak.

Mikroguruhlar bilan ishlashga haddan tashqari berilib ketishkerak emas, bu narsa treningni samaradorligi va rivojlanishigahalakit berishi xam mumkin. O'qituvchi mikroguruhlar bilan ishlayotganda ularning faolligini oshirish uchun quyidagi qoidalarga qat'iy rioya qilishi kerak.

Guruhdagi muammoli holatni hal qilish

Ba'zida kichik guruhlarda berilayotgan topshiriqlarni hamma ishtirokchilar ham bir xilda bajarishni istayvermaydilar. O'qituvchi kichik guruhlarda ba'zi ishtirokchilar tomonidan yuzaga keltirilishi mumkin bo'lgan quyidagi ko'rinishdagi muammolarni hal qilishga tayyor turishi kerak:

- ishtirokchi suhbatga aralashaverib, qolganlarning jig'igategishi mumkin;
- ishtirokchi o'zini ko'rsatish uchun boshqalarni tanqid qilishi, noo'rin kamsitishi mumkin;
- ishtirokchi birovlariga nima qilishi kerakligini aytib, aqlo'rgatishga harakat qilishi mumkin;
- ishtirokchi gapirayotgan ishtirokchining gapini bo'lishgaharakat qilishi mumkin;
- ishtirokchi guruh ishida qatnashishdan bosh tortishi mumkin;
- ishtirokchi topshiriqda tegishli bo'lmagan narsalar haqidagapirib vaqt o'tkazishga harakat qilishi mumkin.

Guruxda bunday muammolarni hal etish uchun quyidagicha yo'l tutish mumkin:

- Agar guruh ishida og'ishlar ro'y bersa, guruhga muloyimlik bilan vaqt behuda ketayotganligini va berilgan topshiriqni bajarish yokimuammoni muhokama qilish lozimligini eslatish lozim.

- Muammo tugʻdirayotgan ishtirokchi bilan alohida gaplashish kerak. Guruh qabul qilgan qoidalariga toʻxtalib, keyin bir kishining xulq-atvori qolganlarga ham salbiy taʼsir qilishini tushuntirish lozim va undan keyingi mashgʻulotlarda guruh bilan hamkorlikda ishlashini soʻrash kerak.

- Boshqalarning soʻzini boʻlayotgan ishtirokchiga shunday yogʻlantirish berish mumkin: "Meni kechirasiz-u lekin sizga shunieslatib qoʻymokchiman — guruhning har bir aʼzosi gapirish huquqiga ega va uning soʻzini boʻlish kerakmas".

- Agar biror ishtirokchining xulq-atvori va xatti-harakati ishlashga halaqit berayotgan boʻlsa, uni guruhning oʻzida ochiqchasiga muhokama qilish kerak. Qilingan harakat yoki aytilgan gapni tanqid qilinadi, uning salbiy tomonini va guruh ishiga halaqit berganligini koʻrsatib beriladi, lekin hech qachon shu ishni qilgan yoki gapirgan ishtirokchining oʻzini tanqid qilinmaydi.

- Mashgʻulot soʻngida guruhning oʻzlashtirish darajasini muhokama qilish va bunda kimningdir hissiyotlariga tegib ketmaslikka harakat qilish lozim. Guruhda ishlash Quyida kichik guruhlarda mashgʻulot oʻtkazishda nimalarga eʼtibor berish lozimligi haqida ayrim tavsiyalarni havola etamiz: Ishni 3 yoki 4 kishidan iborat boʻlgan guruhlar bilan ishlashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shu usul bilan ishtirokchilardagi qurquvni yoʻqotish osonroq kechadi.

Kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida ularga beriladigan topshiriqlar, guruhning barcha aʼzolariga umumiy topshiriqlar yoki guruhning har bir aʼzosi ga individual beriladigan topshiriqlar asosida tanlanishi kerak. Kichik guruhlar bilan ishlashda yangi interfaol usullardan foydalanish mumkin. Umuman olganda har

bir oʻqituvchining oʻzi kashf qilgan dars oʻtish metodlari boʻladi. Qaysi metoddan foydalanishimizdan qatʼiy nazar eng asosiysi yuqori natijaga erishishdir.

Adabiyotlar:

1. Z.G Gapparov. “Sport psixologiyasi”. Darslik. – Toshkent, OOO “Mexridaryo”, 2011.
2. X.Tulenova, P.Xo‘jaev, M.Xo‘jaeva, H.Meliev “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”– T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2012 270 b.
3. Z.G Gapparov. “Futbolchilarni psixologik tayyorlash”– T.: “Futbol” (darslik) R.A.Akramov um.tax.os. TDJTI.
4. X.F.Rashidov, A.A.Zokirov, O.U.Avlaev “Rahbarlik psixologiya” Toshkent.2008 O‘MKHTTKMO va UQTI. Uslubiy qo‘llanma 68 b
5. E.E.G‘oziev “Psixologiya” darslik –T. Noshir nashriyoti 2010 357.b 15. E.E.G‘oziev “Ontogenez psixologiyasi” darslik –T. Noshir nashriyoti 2010 267.b 6.Mamatov M.M. Sport psixologiyasi kursidan ma’ruza mavzulari va uning matni. T.: Universitet. 1999
17. F.Xo‘jaev; Futbol o‘quv qo‘llanma-T: Respublika ta’lim markazi. 2010.127 b.